

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14928954>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQ TOVUSHLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Reimbayeva Mehribon Quvondiq qizi

Nizomiy nomidagi TDPUning Boshlang‘ich ta‘lim
Fakulteti, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Hamrayev. M.

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘lim dotsenti, Filologiya
fanlar nomzodi E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda nutq tovushlarni o‘qitish samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘rilash, adabiy til meyyorlariga rioya qilgan holda fikrlarini bayon qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish, tilning inson hayotida tutgan o‘rnining beqiyosligi masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Fonetika, harf, unli, undosh, jarangli, jarangsiz, grammatika, imlo, nutq tovushlari, bo‘g‘iz undoshi, artikulyatsiya.

Abstract: This article examines the issues of increasing the effectiveness of teaching phonetic sounds in primary grades, correcting students' oral and written speech, forming the skills to express their thoughts in accordance with the norms of the literary language, and the incomparable role of language in human life.

Keywords: Phonetics, letter, vowel, consonant, voiced, voiceless, grammar, spelling, speech sounds, larynx, articulation.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности обучения фонетическому звучанию в начальных классах, коррекции устной и письменной речи учащихся, формирования у них навыков изложения своих мыслей в соответствии с нормами литературного языка, а также непревзойденная роль языка в жизни человека.

Ключевые слова: Фонетика, буква, гласный, согласный, звонкий, глухой, грамматика, орфография, звуки речи, гортань, артикуляция.

Tobora rivojlanib borayotgan yurtimizda ilm-fanga bo'lgan e'tibor ham kundan-kunga oshib bormoqda, jumladan, ona tilimizga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Uni yana isloh qilish maqsadida bir qancha qonun, farmon va loyihalar ishlab chiqilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Bu respublikamizda davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o'zbek tilining xalqaro miqiyosdagi obro'-etiborini oshirishga xizmat qiladi". [1]

Til fikrlarni bayon qilish va shakllantirish, taassurot va ichki kechinmalarni ifodalay olish, insonlar o'zaro muloqot qila olishlari hamda bir-birlarini anglay olishlari uchun muhim vosita hisoblanadi. Til aloqa vositasi bo'lganligi sababli, bu vosita qanchalik rivojlansa fikrlarni bayon qilish shu qadar aniq va tasirchan bo'ladi. Shu sababli ham tilga bo'lgan e'tibor ortib, uning nufuzi yanada oshmoqda. Respublikamiz hududida yashovchi barcha millat o'zbek tilini chuqur o'rganishi uchun ham ko'plab kitoblar va darsliklar, qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa maktablarda boshlang'ich ta'limda ona tili hamda o'qish savodxonligi kabi fanlarni o'rgatish samaradorligini oshirish bo'yicha ham chora tadbirlar ko'rilmoqda va o'quvchilar yanada yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun ham darsliklar qayta ishlab yangilanishlar kiritib borilmoqda. Ushbu ishlab chiqarilayotgan darsliklarning asl maqsadlari avvalo o'quvchilarda o'z ona tiliga bo'lgan muhabbat va hurmat tuyg'ularini oshirish bilan bir qatorda, ularni og'zaki hamda yozma nutqida adabiy til meyyorlariga amal qilgan holda fikrlarini bayon qila olishlariga o'rgatish hisoblanadi. "Og'zaki hamda yozma nutqni adabiy til meyyorlariga amal qilgan holda bayon

qilish va ulaming savodxonligini yanada oshirishdan iborat bo'lgan ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish.
2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

“Fonetika” bo'limining izchil kursi “Fonetika va grafika”, “Nutq tovushi va harf”, “Unli tovushlar”, “Undosh tovushlar”, “Nutq a'zolari”, “Lab tovushlari”, “Til tovushlari”, “Burun tovushlari”, “Bo'g'iz tovushi”, “Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi” singari mavzularni o'z ichiga oladi. [1] Nutq tovushlarini turli tomondan o'rganish mumkin: tarixiy nuqtai nazardan, qiyosiy tomondan, hozirgi o'zbek tili va mahalliy dialektlarning nutq tovushlarini taqqoslash jihatidan, nutq tovushlarini turli asboblarda yordamida eksperiment qilish yo'li bilan va boshqalar. Shunga ko'ra, fonetika nazariy planda umumiy fonetika va xususiy fonetikaga, amaliy planda esa tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika kabi bir necha sohaga bo'linadi. [3]

Umumiy fonetika turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o'rganuvchi bo'lim. U turli sistemalar tillarida inson nutq apparatining tovush hosil qilish imkoniyatlarini, nutq organlari yordamida tovushlarni hosil qilish usullari va ulardan nutqda foydalanish imkoniyatlarini o'rganish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. U alohida va qarindosh tillarning fonetik sistemasini batafsil va chuqur o'rganish hamda natijalarni umumlashtirish asosida hosil qilinadi. Demak, tillarning fonetik xususiyatlari qanchalik chuqur va izchil o'rganilsa, umumiy fonetika uchun manba shunchalik boy bo'ladi. Xususiy fonetika muayyan bir tilning fonetik bazasini, fonetik qonuniyatlarini umumiy fonetika qonuniyatlariga bo'ysunadi va uning qonuniyatlari asosida faoliyat olib boradi. Xususiy fonetika muayyan bir tilning amaliy fonetikasi hisoblanadi. U turli farazlar, gipotezalar, postulatlardan xoli bo'ladi. Muayyan tilning artikulyatsion bazasi, uning artikulyatsion imkoniyati, akustik refrezentatsion usuli asosida ish ko'radi. Mazkur tilning fonetik ifoda bazasi bilan bog'liq barcha jarayonlar xususiy fonetikada o'rganiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida tovushlar ikki guruhga bo'linadi: Unli tovushlar va undosh tovushlar. Unli va undosh tovushlarni farqlovchi uchta belgi bor:

1. To'siqqa uchrash, uchramaslik; (unli to'siqqa uchramaydi, undosh uchraydi.)
2. Bo'g'in hosil qilish yoki qilmasligi; (unli hosil qiladi, undosh hosil qilmaydi)
3. Shovqinning bor yoki yo'qligiga ko'ra. (unlida yo'q, undoshda bor) [4]

Nutqimizdagi tovushlarni o'quvchilarga o'rgatishda ularga unli va undosh tovushlarni farqlashni, qanday talafuz qilishimiz kerak ekanligini, talafuzdagi farqlar va xususiyatlarini, talafuz qilganda ishtirok etadigan nutq a'zolari haqida chuqur bilim berish, o'rgatish zarur hisoblanadi. Fonetikaga oid savodlarni o'rgatish asosan analitik tovush metodididan foydalanib boriladi, bunda so'zlar bo'g'inlarga bo'linadi, bo'g'inlardan aynan biz o'rganayotgan kerakli tovush olib o'rganiladi, tahlil qilinadi, mustahkamlab boriladi. Fonetikani o'rganishda oldin unli tovushlardan boshlanadi, o'rganish oson bo'lishi uchun bir bo'g'inli so'zlar olinadi. Chiroyli va aniq talaffuz qilish hamda yozish kerakligi, o'quv qurollari hamda husnixatni ozoda tutish o'rgatiladi. O'rgatish davomida turli qiziqarli metodlardan ham foydalanib borish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi. O'quvchilar ancha o'rganib olganlaridan keyin, olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida turli o'yinlar va topshiriqlar berib borish ham samara beradi. Aytaylik ikki bo'g'inli so'zlarning bir bo'g'inini bergan holda ikkinchisini topish va bu so'zda jami qancha unli hamda undosh tovushlar borligini so'rash mumkin bo'ladi.

"Tovushlar va harflar" harflar bo'limida tovushlar va harflarga oid asosiy bilimlar o'quvchilarning savod o'rgatish jarayonida o'rgangan amaliy bilimlariga asoslangan holda, 1-2-sinflarda beriladi, ularga oid ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi, bo'g'in jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida tushuncha beriladi. Bolalar shu bilimlar asosida aytilishi va yozilishida farq qiladigan so'zlar; a va o, u va i, tovushli so'zlarning aytilishi va yozilishi; so'z oxirida kelgan jarangli b va d undoshlarining jarangsiz jufti p va t undoshi eshitilsa ham, b va d harflarining yozilishi; ayrim oxirida kelgan d va t undoshlarining talafuzda tushib qolishi, ammo yozuvda saqlanishi; yonma- yon kelgan ikkita bir xil undoshli so'zlarning aytilishi va yozilishini bilib oladilar. 3 va 4-sinflarda bo'lsa tovushlar va harflarga oid bilimlar mustahkamlanadi. [2] Harflar va tovushlarni o'rgatish uchun 28 soat ajratilgan bo'ladi. Demak, shuni takidlash joizki aynan o'sib, rivojlanib kelayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri og'zaki va yozma nutqni adabiy til meyyorlariga amal qilgan holda o'rgatish juda muhim hisoblanadi va bunda fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Boshlang‘ich sinflarda fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirish usullari” - Jumakulova M. Kh. 2022-y.
2. Kadamova M. M. “Tovushlar va harflar” bo‘limini o‘rganishning ahamiyatli jihatlari.
3. Nabiyeva D. A, Zokirova H. R “O‘zbek tili fonetikasi”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma — 2016-y.
4. Qilichev J. Ona tili. Fonetika – abituriyentlar uchun eng qulay qo‘llanma.